

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
IQTISODIYOT VA TURIZM FAKULTETI
BUXGALTERIYA HISOBI VA STATISTIKA KAFEDRASI**

**“MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL
RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISH
SUR‘ATLARINI TA‘MINLASH:
MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi
5- may 2023-yil**

**Республиканская научно-практическая
конференция на тему**

**«ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСКОРЕННОГО
РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ЭКОНОМИКИ И ВЫСОКИХ ТЕМПОВ
РОСТА: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ»
5 май 2023 год**

“Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлаш: муаммолар ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференциясининг

Дастурий қўмита таркиби:

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
О.Х.Хамидов	и.ф.д., проф.	Ректор
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Б.Н.Наврўз-Зода	и.ф.д., проф.	Маркетинг ва менежмент кафедраси профессори
А.Т.Жўраев	и.ф.н.доц.	Халқаро ҳамкорлик бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Н.С.Ибрагимов	и.ф.д., доц.	Туризм ва меҳмонхона хўжалиги кафедраси
А.Ж.Абдуллаев	и.ф.ф.д. (PhD), проф.	Иқтисодиёт кафедраси мудири
З.С.Нуров	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Таълим сифатини назорат қилиш бўлими бошлиғи

Ташкилий қўмита таркиби:

Ф.И.О.	Илмий даражаси ва унвони	Лавозими
Т.Ҳ.Расулов	ф-м.ф.доктори (DSc), проф.	Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Д.Ш.Явмутов	и.ф.н.доц.	Иқтисодиёт ва туризм факультети декани
Ю.У.Суннатов	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси мудири
Н.Ҳ.Кулиев	и.ф.н.доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
Б.С.Исомов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
С.О.Хомидов	и.ф.ф.д. (PhD), доц.	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.А.Қодиров	и.ф.ф.д. (PhD)	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси в.б. доценти
М.Ҳ.Ўроқова	-доцент	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти
А.У.Курбонов	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси
М.С.Арипова	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси
Ш.Б.Маликова	-	Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси ўқитувчиси

Масъул муҳаррир: Б.С. Исомов Бухгалтерия ҳисоби ва статистика кафедраси доценти

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA YAIM NING
HISSASI**


Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna
Buxoro davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi
Xojiyev Boburbek Mehriddinovich
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulot statistik ko‘rsatkichlari qanday omillarga bog‘liqligi, hozirgi kunda ular qanday holatdali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: YaIM, bozor qiymati, global konyunktura, o‘sish sur‘ati, tendensiya, budjet, xorijiy investitsiyalar.

Yalpi ichki mahsulot — umumiy qabul qilinish qisqartirilishi hamda makroiqtisodiy ko‘rsatkich, bu bevosita har bir yilning oxirgi mollar va xizmatlar aks ettiruvchi bozor qiymati (ya‘ni bevosita iste‘mol uchun mo‘ljallangan). Shuningdek, YAİM davlatlar iqtisodiyot hududining hamma sohalarida iste‘mol qilish uchun yil davomida ishlab chiqarilgan hisoboti, milliy jihozlar ishlab chiqarish omillari ishlatilgan qat‘iy eksportning jamg‘armalari hisoblanadi. Birinchi marta 1934-yilda Saymon Kuznets tomonidan bu tushuncha ilk bor taklif etilgan edi. YAİM mavjud va belgilangan davlatlar ishlab chiqarishning izchilligini yillik hisobot sifatida dunyo iqtisodchilari qismlarga bo‘lishadi. YAİM ushbu yildagi narxlarning o‘shishini joriy narxlarga (nisbat berilmasdan) asosan dunyo bozorlarida belgilaydi. YAİM (inqirozni to‘g‘ri baholashligi bilan) narxlardagi o‘shish hususiyatini oldingisi yoki har qanday boshqasini yillik zahira taqsimotiga muhrlaydi. Har doim YAİMga amaldagi mavjud mahsulotlar hisobga olinadi va qanday darajada mamlakatlarda ishlab chiqarishning o‘shishi mavjudligi bilan narxlarni YAİM darajasi yordamida aniqlanadi. YAİM yonida iqtisodiyot o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli sotilgan ishchi kuchini band etish barobarida qaytaradi. 2022-yil O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun jiddiy sinovlar davri bo‘ldi. Iqtisodiy islohotlar va tadqiqotlar markazi shu davrda mamlakatning rivojlanish jarayonini tahlil qildi. Pandemiyadan keyingi tiklanishga global konyunkturaning beqarorligi, asosiy savdo sheriklari bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi qiyinchiliklar, jahon bozorlaridagi narxlar tebranishlari, transport va logistika zanjirlarining uzilishi, vaziyatning umumiy noaniqligi kabi omillar ta‘sir o‘tkazdi. Biroq iqtisodiyot tashqi qiyinchiliklarga chidamliligini ko‘rsatdi. Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YAİM) 2022-yilda 5,7 foizga o‘sgan, ammo o‘shish sur‘ati 2021-yilga (7,4 foiz) nisbatan pasaygan. Noqulay tashqi sharoitlar fonida asosiy savdo sheriklari bo‘lgan mamlakatlardagi vaziyat turlicha rivojlandi. Qirg‘izistonda 2022-yilda YAİM 7 foizga o‘sgan bo‘lsa, 2021-yil oxirida o‘shish 3,6 foizni tashkil qilgan. Qozog‘istonda o‘shish sur‘atlari 2021-yildagi 4,3 foizdan 2022-yilda 3,1 foizga pasaydi.

Mutaxassislarning fikricha, Xitoy YAİMning o‘shish sur‘ati o‘tgan yil oxirigacha sekinlashdi va taxminan 3 foizni tashkil qildi. Rossiya iqtisodiyoti yil oxirida mojaro va sanksiyalar fonida tanazzulga yuz tutdi. Natijada yanvar—noyabr oylarida Rossiya iqtisodiyoti 2021-yilning shu davriga nisbatan 2,1 foizga kamaydi. 2022-yilda O‘zbekistonda inflyatsiya 2021-yildagi 10 foizdan 12,3 foizgacha tezlashdi. Bu, asosan, jahon miqyosida narxlarning oshishi, O‘zbekiston bozoriga asosiy yetkazib beruvchi bo‘lgan mamlakatlarda mahsulotlar tannarxining oshishi bilan bog‘liq. Masalan, mamlakat importning qariyb 20 foizi to‘g‘ri keluvchi Rossiyada inflyatsiya 2021-yilda 8,4 foizdan 2022-yilda 11,9 foizgacha o‘sdı. Xuddi shu davrda Qozog‘istonda (O‘zbekiston importining taxminan 11 foizi) inflyatsiya 8,4 foizdan 20,3 foizgacha o‘sdı. O‘zbekistonda 2022 yilda oziq-ovqat mahsulotlari narxi asosan 15,6 foiz (2021-yilda 13 foiz) va noziq-ovqat mahsulotlari narxi 10,7 foizga (7,8 foiz) oshdi. Pullik xizmatlar narxlarining o‘shishi 8,4 foiz (7,7 foiz) o‘rtacha darajasida saqlanib qoldi. Yil oxirida asosiy kapitalga investitsiyalar 0,5 foizga qisqardi. Shu bilan birga, markazlashtirilgan investitsiyalarni kamayish tendensiyasi davom etmoqda, ularning hajmi 23 foizga pasaydi. Hukumat tomonidan kafolatlangan xorijiy investitsiyalar, kreditlar va kreditlarni jalb qilish bo‘yicha me‘yoriy cheklovlar ularning 33 foizga qisqarishiga olib keldi. Shuningdek, budjet mablag‘lari hisobidan investitsiyalar 15 foizdan ko‘proqqa kamaydi. Shu bilan birga, markazlashtirilmagan investitsiyalar hajmining 4,9 foizga o‘shishi kuzatilmoqda. Xususan, markazlashtirilmagan investitsiyalarning aksariyat qismini tashkil etuvchi to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 1,3 foizga oshib, 8,5 milliard dollarni tashkil etdi. Korxonalar hisobidan yo‘naltirilgan investitsiyalar 8,9 foizga, aholi mablag‘lari 3,2 foizga, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari 7,8 foizga oshdi. Umuman olganda, yil davomida investitsiyalarning umumiy hajmida markazlashmagan investitsiyalarning ulushi 80,8 foizdan 85,1 foizgacha o‘sdı, markazlashtirilgan investitsiyalarning ulushi esa mos ravishda 19,2 foizdan 14,9 foizgacha pasaydi. Yil yakunlariga ko‘ra, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘shishi kuzatilmoqda.



1- rasm. MDH davlatlari YaIMning o'sish (kamayish) sur'atlari¹

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, transport va IT sohalari eng faol - birdaniga 14,7 foizga o'sgan. Eng past o'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (3,6 foiz) kuzatildi.

AQSH dollarida o'rtacha kurs bo'yicha hisoblanganda nominal YaIM 80 384 million dollarni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 11,18 milliard dollarga oshib, 2020 yilga nisbatan 9,3 milliard dollarga ko'p bo'lib, 69 235 million dollarni tashkil etdi.

2021 yil yozida prezident Shavkat Mirziyoyev 2026 yilga borib O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5 barobarga oshirish va YaIM hajmini kamida 100 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini [ta'kidlagan](#) edi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAIM hajmi joriy narxlarda 4 million 604,6 ming so'm (420 AQSH dollari)ni tashkil etib, 2021 yilning mos davri bilan taqqoslaganda 3,7 foizga o'sdi.

Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarni davom ettirish maqsadida «Yangi O'zbekiston»ning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha «yo'l xaritasi» loyihasi jamoatchilik [muhokamasiga](#) taqdim etildi. Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida «Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari» tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan quyidagi yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi (keyingi o'rinlarda — Taraqqiyot strategiyasi) va uni «Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

- inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish uchun nimalar qilish kerak – Jahon banki ekspertlari tavsiyalari:

¹ Milliy statistika xizmatlarining rasmiy saytlaridan olingan ma'lumotlar asosida

Ta‘kidlanishicha, O‘zbekiston 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilishi uchun YaIMning o‘sish sur‘atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi kerak.

Jahon banki O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi asosiy muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan yangi tadqiqotini e‘lon qildi. Unda xususiy sektor o‘sishi yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini cheklash, inson kapitalini rivojlantirish va mamlakatning yashil iqtisodiyotga o‘tishi bo‘yicha tavsiyalar mavjud.

«Rasmiylar ulkan maqsadlarni ko‘zlab, islohotlarning keyingi bosqichiga hozirlik ko‘rmoqda. Xususan, 2026 yilgacha aholi o‘rtasida kambag‘allikni ikki baravar kamaytirish, shuningdek, 2030 yilga borib daromad darajasi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga qo‘shilish ko‘zda tutilgan. Bunga erishish uchun YaIMning o‘sish sur‘atlari hozirgi darajadan ancha yuqori bo‘lishi talab qilinadi. Ushbu maqsadlarga ish o‘rinlarini yanada ko‘proq yaratish hamda fuqarolarning, jumladan, yoshlar, ayollar va nogironligi bor shaxslarning iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatlarini oshirish orqali erishish mumkin», deyiladi hisobotda.

O‘zbekistonga yuqoridagi maqsadlarga erishish uchun quyidagi to‘rtta yo‘nalishda rivojlanish yordam berishi mumkin:

- 1) xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish;
- 2) davlatning iqtisodiyotdagi rolini isloh qilish;
- 3) fuqarolar manfaatlariga va inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlarga investitsiya qilish;
- 4) ekologik barqaror kelajakni barpo etish.

Shuningdek, hisobotda rasmiylar uchun tavsiyalar berilgan va yuqorida keltirilgan yo‘nalishlarda quyidagi ustuvor islohotlarga e‘tibor qaratish zarurligi qayd etilgan:

Mamlakatda xususiy sektor o‘sishini rag‘batlantirish uchun:

- yer, mehnat va moliyaviy resurslarni taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- xususiy sektorda raqobatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy bazani isloh qilish;
- xususiy sektorning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishiga ko‘maklashuvchi tashqi savdo va investitsiya siyosatini olib borish;
- xususiy sektor korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha samarali xizmatlarni rivojlantirish;
- qishloq xo‘jaligi bozorlaridagi islohotlarni jadallashtirish, bu esa davlatning ularning faoliyatiga aralashishiga chek qo‘yadi.

Davlat ko‘magi bilan mamlakatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish uchun:

- davlatning tovar va xizmatlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi funksiyalaridan bozorni rivojlantirishni rag‘batlantiradigan funksiyalariga o‘tkazib, uning rolini transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish va ularning samaradorligini oshirish;
- zarur ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish va turli hokimiyat organlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirish;
- davlat funksiyalarini markazsizlashtirishni davom ettirish;
- davlat organlarining fuqarolar oldidagi hisobdorligini oshirish zarur.

Mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish uchun:

- ta‘lim tizimi faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish orqali uning sifatini oshirish;
- maktabgacha ta‘lim va oliy ta‘lim muassasalariga kirish imkoniyatini yaxshilash;
- sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini va fuqarolar uchun undan foydalanish imkoniyatini oshirish;
- butun mamlakat bo‘ylab suv ta‘minoti va sanitariya xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- kambag‘allikni o‘lchash tizimini, unga qarshi kurashish bo‘yicha davlat dasturlarini va ularning maqsadlilikini takomillashtirish;
- aholi zaif qatlamlarining mehnat bozorida keng ishtirokini rag‘batlantiruvchi davlat siyosatini ishlab chiqish;
- ijtimoiy himoya tizimi samaradorligini oshirish va u bilan aholining muhtoj qatlamlarini qamrab olish kerak.

Mamlakatning ekologik barqaror kelajagini barpo etish uchun:

- tabiiy resurslarni, jumladan, suv va yer resurslarini samaraliroq boshqarish;
- atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilarini yanada kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini, shu jumladan energetika sohasini modernizatsiya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

- tabiiy ofatlar xavfini boshqarish tizimini takomillashtirish lozim.

«Hukumatdagi hamkorlarimizga yaqin hamkorlik va MTDni tayyorlashda zarur boʻlgan maʼlumotlar uchun oʻz minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Hisobot JBning Oʻzbekiston bilan yangi hamkorlik dasturi doirasidagi ustuvor yoʻnalishlarni belgilab olish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Unda kelgusi besh yil ichida muhim islohotlarni amalga oshirish uchun rasmiylarga biz tomonimizdan koʻrsatiladigan moliyaviy va tahliliy yordam hajmi belgilanadi. Dastur may oyi oxirida Jahon banki Ijrochi direktorlari kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi», — deya qayd etdi Jahon bankining Oʻzbekistondagi vakolatxonasi rahbari Marko Mantovanelli.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Yangi Oʻzbekiston»ning 2022–2026 yillarga moʻljallangan taraqqiyot strategiyasi
2. Долгова В.Н., Т.Ю. Медведева, Т.В. Хомутичкина. Макроэкономическая статистика. Практикум. М.: Финансовый университет, 2015 г. - 149-стр.
3. Золотачук В.В. Макроэкономика. Учебник. – М.: Инфра –М, 2014. 107 с. 7.
4. Mambetjanov Q.Q.Yalpi ichki mahsulotni xarajatlar boʻyicha hisoblash usulini takomillashtirish yoʻllari // Iqtisod va moliya T.:2017, 9-12 b.
5. Matkarimova I. A. Yalpi ichki mahsulot xajmini baxolash usullari (milliyhisoblar tizimiasosida) // Molodoy ucheny. — 2017. — №16.2. — S. 16-19. — URL <https://moluch.ru/archive/150/42520/>.
6. Rustamov N.I. Yalpi ichki mahsulot koʻrsatkichi toʻgʻrisidagi ilmiy nazariyalar va uning hisoblanishiga doir mulohazalar. //“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 3, may-iyun, 2016 yil.
7. Gʻoyibnazarov B.K. “Oʻzbekiston Respublikasida milliy hisoblar tizimini ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslari” (statistik aspekt) i.f.d. darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati.- T.:TDIU.2006.32
8. <https://stat.uz/uz/>

MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI

Olimova Nodira Xamrakulovna, i.f.n., dotsent,
Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi, talaba
Fargʻona davlat universiteti

Respublikamizda investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish, toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada jadallashtirish maqsadida investitsiya takliflarini baholash, investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda boshqa qator funktsional vazifalarni bajaruvchi maxsus fakultativ jamgʻarmani tashkil qilish va uni xorijiy mamlakatlar ilgʻor tajribalariga xos boʻlgan trast boshqaruv tizimi orqali faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida davlat investitsiya dasturining manzilli roʻyxatiga kiritilayotgan investitsiya loyihalarini texnik iqtisodiy asoslanganligi, ularning yuqori qoʻshilgan qiymatni innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga yoʻnaltirilganligi va loyihalarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlariga toʻliq javob berishini baholovchi va moliyalashtiruvchi maxsus institut shakllantirilishi lozim.

Korxonalarda sanoat siyosati va investitsion jarayonlarni takomillashtirish, ularning istiqbolli yoʻnalishlarini ishlab chiqish hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uygʻunligini taʼminlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2022 yil 18 maydagi PQ–246-son [Qarori](#)da taʼkidlanishicha, 2022-2030 yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida Oʻzbekiston oʻrnini yaxshilash strategiyasi, 2022-2026 yillarda raqobatbardosh sanoat unumdorligi indeksida Oʻzbekiston oʻrnini yaxshilash strategiyasini amalga oshirish boʻyicha chora-tadbirlar dasturi va iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi boʻyicha yuqori va oʻrta-yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan tarmoq va sohalarda faoliyat yurituvchi davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari roʻyxati tasdiqlanadi.

Investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning **amerika modeli** davlat mulki ulushining pastligi va davlat tomonidan tartibga solish darajasining ahamiyatsizligi, tadbirkorlikning barcha usul va vositalar bilan qoʻllab-quvvatlanishi, boy va kambagʻal aholi qatlamlari oʻrtasida keskin farqlanishning mavjudligi, kam taʼminlangan aholi qatlamlari hayot darajasining boshqa mamlakatlarga nisbatan bir muncha yuqori ekanligi va shu kabi jihatlardan ajralib turadi. Rivojlanishning **yapon modeli** ijtimoiy yoʻnaltirilgan boʻlib, milliy iqtisodiyotning asosiy sohalariga yuqori darajada davlat aralashuvini, iqtisodiy rivojlanish rejalarini tuzishni va ish haqi darajasida uncha katta boʻlmagan farqlanishni taʼminlaydi. **Germaniyaning**

MUNDARIJA

Kirish so‘zi	3
I sho‘ba. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va investitsiya muhitini yanada yaxshilashning ustuvor yo‘nalishlari.....	4
MILLIY VA GLOBAL IQTISODIYOTNI O‘SISHINI TA‘MINLOVCHI OMILLAR VA MUAMMOLARI. O.X.Xamidov	5
ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ. Суннатов Ю.У. Хомидов С.О	8
ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSİYALARNING IQTISODIY MONIYATI. Isomov Bekmurot Sayfiddinovich.....	13
ИНВЕСТИЦИЯЛАР ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШНИНГ МУҲИМ КЎРСАТКИЧЛАРИ. Раджапбай Дусмуратов.....	19
О‘ЗБЕКISTONDA ИТМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРАҚҚИЙОТ ЖАРAYONLARI VA MUAMMOLARI. Jiyanov Laziz Nizomovich	23
ЧЕТВЕРТАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И ЕЕ ОТВЕТ. Канг Хи Чон, КОИСА, Южная Корея.....	25
О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA ERISHISH YO‘LIDA INVESTITSION MUHITNI IQTISODIY VA HUQUQIY JIHATDAN YANADA YAXSHILASH YO‘NALISHLARI. Mamatqulov Murod Mustafaqulovich.....	30
XUSUSIY SEKTORGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI. Qosimova Lola Sultanovna.....	32
MINTAQALARDA MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA INVESTITSIYA SIYOSATINING AHAMIYATI. Toxirov Dilyor Davlatovich	34
БОЗОР ИҚТИСОДИЁТИ ШАРОИТИДА ИНВЕСТИЦИОН ЛОЙИҲАЛАР ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШ. Юсупова Нигина Джураевна	38
О‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishida YaIM ning hisyasi. Abdullayeva Hilola Nutfilloyevna	40
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTI. Olimova Nodira Xamrakulovna, i.f.n., dotsent, Djuraboyeva Diyora Muzaffar qizi	43
IQTISODIY BARQARORLASHTIRISH SIYOSATINI YURGIZISHDA MAKROIQTISODIY DASTURLARDAN FOYDALANISH ASOSLARI. Olimova Nodira Xamrakulovna	44
REAL SEKTOR KORXONALARINI QO‘LLAB- QUVVATLASHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI. Yuldashev Donyor Tairovich	46
ЕнгиЛ саноат корхоналари рақобатбардошлигини стратегик параметрларини шакллантиришнинг асоси. Рахмонов Хуршид Хайриддинович.....	47
II sho‘ba. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish va ularning turistik salohiyatidan samarali foydalanishning dolzarb masalalari.....	55
AGROPOLIS O‘ZBEKISTON UCHUN ERKIN IQTISODIY ZONALARNING SAMARALI SHAKLI. Khamroev Khalim	56
О‘ЗБЕКISTONDA MUSTAQIL TURIZMNI TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI HOLATI. Ibragimov Nutfillo Salimovich, Yuldashev Kamol Sharifovich	59
ВОПРОСЫ ИНВЕСТИРОВАНИЯ ЭКОНОМИКИ ТУРИЗМА. Исомов Бекмурот Сайфиддинович	61
О‘ЗБЕКISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR. Olimova Nodira Xamrakulovna, Kamoldinov Mirzohid Muzaffar o‘g‘li	72
ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ. Умаров Аббос.....	73
AGROTURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING QISHLOQ HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANISHINI TA‘MINLASHDAGI AHAMIYATI. Sayfulloyev Oybek Olimovich	77
РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В МИРЕ. Арипова Махлиё Салахиддиновна.....	80
TYPES OF SERVICES IN THE HOTEL INDUSTRY AND ITS IMPACT IN COMPETITIVENESS. Istamkhuja Olimovich Davronov	83